IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

BURUN-HALQUM ANGIOFIBROMASINI ZAMONAVIY TASHXISLASH VA DAVOLASH

Makhamadaminova Shoira Abduvaliyevna

Toshkent tibbiyot akademiyasi otorinolaringologiya va stomatologiya kafedrasi Otorinolaringologiya

Isroilov Abdujabbor Yuldash o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Otorinolaringologiya yo‘nalishi 3-kurs magistr

Annotatsiya

Ushbu maqolada burun-halqum angiofibromasini zamonaviy tashxislash va davolash usullari, eski usullar bilan kelgan.

Kalit so'zlar

Otorinolaringologiya, burun, halqum, tashxis, Tib qonunlari, zamonaviy shakillar.

Kirish

Otorinolaringologiya – bu kalla va bo’yin sohasi, aniqrog’i odam tanasining qosh usti yoyidan o’mrov suyagigacha bo’lgan qismining kasalliklari bilan shug’ullanadigan fan.

Yuqori nafas yo’llari, ya’ni burun, halqum, hiqildoq organizmga tozalangan va isitilgan havo oqimini kirishini ta’minlabgina qolmay, balki hid bilish, ovqatlanish va nutqni shakllantirish kabi muhim faoliyatlarda ishtirok etadi. Quloq esa insonga tovushlarni va nutqni eshitish, ularni tahlil qilish hamda muvozanatni saqlash imkonini beradi. Bunda ushbu a’zolarning faoliyati yurak, qon tomir, asab, bosh miya, oshqozon-ichak, harakat, immun, qon ishlab chiqarish va boshqa a’zo va tizim-lar faoliyati bilan uzviy bog’liq. Shubhasiz, bunday fiziologik va anatomik aloqalar. LOR-a’zolari va ushbu tizimlarning kasalliklarida qanday patologik reaksiyalar yuzaga kelishini belgilab beradi. LOR-a’zolarining yallig’lanishi va boshqa kasalliklari aksariyat hollarda organizmda turli patologik o’zgarishlarni rivojlanishiga olib keladi, shuning uchun vrachlar otorinolaringologiya fanining asoslarini chuqur o’zlashtirishlari lozim. Shunday qilib, otorinolaringologiya fani yuqori nafas yo’llari va quloq kasalliklarini boshqa patologiyalar bilan bog’liq holda aniqlash, davolash va oldini olish, hamda burun, halqum, hiqildoq va quloqning fiziologiyasi va patologiyasi masalalarini boshqa a’zo va tizimlar bilan bog’liq holda ilmiy o’rganish bilan shug’ullanadi. Otorinolaringologiya fanining asosiy vazifasi tibbiyot institutlarining talabalariga quyidagi bilim va ko’nikmalarni o’rgatishdan iborat:

- quloq,tomoq va burunning klinik anatomiyasi va fiziologiyasi;
- LOR-a’zolari kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va davolash usullari;
- otoskopiya, rinoskopiya, faringolaringoskopiya tekshiruv usullari;

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

- eshituv va muvozanatni saqlash a'zolarining funksional holatini tekshirish usullari;- talabalarda LOR-a'zolari kasalliklarini aniqlashda klinik fikrlash qobiliyatini shakllantirish. U yoki bu fandan, shu jumladan otorinolaringologiyadan, chuqur bilimlarga ega bo'lish uchun shu soha qachon va qanday paydo bo'lganligini, qanday muhim o'zgarishlar uning rivojiga ta'sir ko'rsatganini, hozirgi kunda asosiy mazmuni nimadan iborat ekanligini bilish lozimdir. Tabobat, shu jumladan otorinolaringologiya fani eng qadimiy fanlardan biri hisoblanadi. Qadimiy yunon yozuvlari va Buqrot (Gippokrat, eramizdan oldingi 460 - 377 yy.) asarlarida burun, halqum va hiqildoqning anatomik tuzilishlari, faoliyatlari va kasalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Buqrot suyak chig'anog'ining ichida parda chig'anoq borligini aniqlagan, tanglay murtaklarini ko'rsatkich barmoq yordamida paypaslash, burun polipini ipak ip yordamida olish, tashqi eshituv yo'liga o'simlik yog'ini tomizish va tiqma qo'yish kabi ko'pgina tekshiruv va davolash usullarini tavsiya qilgan. Keyinchalik Sels (eramizdan oldingi I asr), Jolinus (Galen eramizdan oldingi 129 - 201yy.) va qadimiy dunyo tibbiyotining boshqa vakillari ham o'z asarlarida ushbu mavzuni kengroq yoritganlar.

O'zbekistonda yashagan qadimiy xalqlar tabobatining rivojlanishiga doir dastlabki ma'lumotlar zardushtiylarning "Avesto" kitobida keltirilgan. IX-X asrlarga kelib tabobat fani Sharq mamlakatlarida tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Samoniylar hukmronligi davrida Buxoro davlatida qator buyuk olimlar etishib chiqdiki, ularning asarlari tabobat fanining keyingi ko'p asrlik taraqqiyotiga asos soldi; Muhammad Zakariyo Roziy (865-925) va Abu Ali ibn Sino (980-1037) shular jumlasidan. Buyuk entsiklopedist olim Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Allomaning bizgacha etib kelgan 240 asarining 40 dan ortig'i tibbiyot masalalariga bag'ishlangan. "Tib qonunlari" asari esa misli ko'rilmagan shuhrat keltirib, Ibn Sinoni jahonga mashhur tabib sifatida tanitdi. Bir necha yuz yillar davomida butun dunyo vrachlari ushbu asardan foydalanganlar.

"Tib qonunlari" asarida alloma inson salomatligi, uni asrash, kasalliklarni oldini olish va o'z vaqtida davolashning ahamiyati to'g'risida tavsiyalarini berib, zamonaviy tibbiyotga asos soldi. Ibn Sino sog'likni saqlash ishini san'at deb atagan. Uning fikricha salomat bo'lish (sog'likni saqlash) uchun quyidagi etti asosiy tadbirlarga amal qilish lozim:

1) tana mutanosibligi – odam mijozini mo'tadil holga keltirish;

2) oziq-ovqat va ichimliklarni to'g'ri tanlash; 3) tanani (organizmni) chiqindilardan tozalash; 4) tana vaznini (to'g'ri) saqlash; 5) burun orqali olinadigan havoni yaxshilash; 6) kiyimni moslashtirish (tanaga va faslga mos kiyim kiyish); 7) jismoniy va ruhiy harakatlar mutanosibligi (mo'tadilligi). Abu Ali ibn Sinoning "Agar nafas olinayotgan havo tarkibida chang va g'ubor bo'lmasa, inson ming yil yashagan bo'lur edi", yoki " Havo toki muvazanatlangan va toza bo'lsa, unga (pnevmaga) begona qo'shimchalar qo'shilmasa, u salomatlik garovi bo'ladi, aks holda turli kasalliklarga sabab bo'ladi" kabi qisqa va keng ma'noli fikri hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Ibn Sino badantarbiyani sog'likni saqlashdagi eng muhim va asosiy omil deb bilib, uni birinchi o'ringa qo'ygan, nafas tizimini mustahkamlash uchun nafas mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni tavsiya qilgan. Ikkinchi o'ringa ovqatlanish tartibini, uchinchi o'ringa dam olish va uyquni qo'ygan.

Abu Ali ibn Sino burun, halqum, hiqildoq va quloqning anatomik tuzilishini batafsil bayon etib, birinchi bo'lib eshituv a'zosini tashqi, o'rta, ichki bo'limlarga va eshituv asab tolasiga bo'ladi; quloq kasalliklarini eshitish qobiliyatining vaqtincha va doimiy yo'qotilishi bilan kechgan o'tkir va

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

surunkali yallig'lanishlarga, karlik va past eshitishlikni tug'ma va orttirilgan shakllarga bo'ladi. Ibn Sino past eshitishlik "yo'lning (tashqi eshituv yo'lining) jarohatlanishi, "ortiqcha go'sht" (o'sma), yot jism va quloq kiri bilan yopilishi natijasida rivojlanishi mumkin deb ta'kidlaydi, past eshitishning asosiy sababi bo'lgan o'rta quloq kasalliklarini serozli va yiringli shakillarga bo'ladi.

Asosiy qism

Buyuk hakim otogen kalla ichi asoratlarining belgilarini sanab o'tadi va "agar shish ochilmasa bunday kasallik xavfli",- deb yozadi. Ibn Sino eshituv asab tolasi zararlanishini aniqlashda anamnez ma'lumotlari va kasallikni boshlang'ich belgilari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi, quloq kasalliklarini davolashda "quloqqa tomiziladigan dorilarning hammasi iliq bo'lishi, sovuq va qaynoq bo'lmasligi kerak", "Quloq shang'illashi, jaranglashi va hushtak chalishiga uchragan hamma odamlar quyosh nuridan, hammomdan, qo'pol harakatlardan, qusishdan, baqir-chaqirdan, to'liqlikdan saqlanishlari va ichni yumshatishlari kerak",- deb tavsiya qiladi. Ibn Sinoning tibbiy tavsiyalari bugungi kunda ham amaliyotda keng qo'llanilib kelmoqda.

Abu Ali ibn Sino LOR-a'zolari kasalliklarini turli shifobaxsh o'simliklardan tayyorlangan dorilarni va jarrohlik yo'li bilan davolash usullarini tavsiya qilgan, birinchi bo'lib kumush naycha yordamida traxeostomiya jarrohlik amalini bajargan. Dorilarni intratraxeal yo'l orqali yuborish usuli esa hozirgi paytgacha takomillashtirilgan holda qo'llanib kelinmoqda. Ibn Sino birinchi bo'lib tibbiyotga perkussiya tekshiruvini kiritdi, birinchilar qatorida yuqumli kasalliklarning ko'zga ko'rinmas qo'zg'atuvchilari borligi va ular suv,ovqat va havo orqali tarqalishi haqidagi gipotezasini ilgari surdi.

Mandino de Lussi 1314 yilda birinchi bo'lib murdani yorib ko'radi va shu bilan tibbiyotni keskin rivojlanishiga zamin yaratadi. A.Vezaliy (1514-1564) quloq bo'limlarining tuzilishini, B. Evstaxiy (1510-1574) eshituv nayi (ushbu nay uning nomi bilan atalgan), nog'ora tori va o'rta quloqning ikki mushakchalarining anatomik tuzilishi, Fallopiy (1513-1582) – yuz asab tolasi kanali (kanal olim nomi bilan atalgan), quloq labirinti, nog'ora bo'shlig'ining anatomik tuzilishini batafsil bayon etganlar.

Dyu Varne (1648-1730) chig'anoqni cholg'u asbobiga o'xshatib, tovushlarni farqlash qobiliyati asosiy membrananing uzunligiga bog'liq ekanligini isbotladi. A.Valsalva (1666-1723) o'zining "Odam qulog'i haqidagi traktat" asarida (1704) quloqning anatomik tuzilishi haqida aniq ma'lumotlar keltirib, eshituv nayi orqali o'rta quloq bo'shlig'iga havo yuborish usulini tavsiya qilgan.

1851 yilda A. Korti birinchi bo'lib chig'anoq reseptor a'zosining (spiral yoki Korti a'zosi) mikroskopik tuzilishini bayon qilgan, E.Reysner chig'anoq yo'lini dahliz narvonidan ajratib turuvchi membrananing (Reysner dahliz membranasi) tuzilishini o'rgangan bo'lsa,1890 yilda Kuper birinchi bo'lib parasentez, ya'ni nog'ora pardani teshish jarrohlik amalini bajargan.

XIX asrning ikkinchi yarmida G. Gelmgols eshituv nazariyasini ishlab chiqdi va tovushning birlamchi tahlili chig'anoq sathida, ya'ni spiral a'zoda sodir bo'lishini: yuqori chastotali tovushlarni - chig'anoq asosida, past chastotali tovushlarni – chig'anoq cho'qqisida joylashgan retseptor hujayralar qabul qilishini isbotlagan. XX asrda G. Bekeshi ichki quloq suyuqliklaridagi gidrodinamik to'lqin nazariyasini ilgari surdi. 1820 yilda chex olimi Ya.Purkin'e ko'z olmasi nistagmi bosh aylanishi bilan funktsional bog'liqligini, Flurans esa 1824 yilda gavda muvozanati ichki quloqdagi yarim doira kanallarning faoliyatiga bog'liq ekanligini isbotlab berdilar.

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

1892 yilda R. Evald o'z tajribalarining natijalari va adabiyotlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish asosida yarim doira kanallar faoliyatining - keyinchalik esa "Evald qonunlari" deb atalgan muhim qonunlarni ishlab chiqdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida otorinolaringologiya mustaqil fan sifatida jarrohlikdan ajralib chiqdi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'ldi:

1. Burun, halqum, hiqildoq va quloq funksional jihatdan bir-biriga chambarchas bog'liq a'zolar ekanligi va ushbu bog'lanish ularning quyidagi faoliyatlarda ishtirok etishi bilan namoyon bo'lishi:

a) havoni o'tkazish, tozalash va isitish;

b) ovqat luqmasini o'tkazish va nazorat qilish;

v) ovoz va nutqni hosil qilish va shakllantirish;

g) o'rta quloqda havoni muntazam almashib turishini ta'minlash.

2. Ushbu a'zolarning o'ziga xos joylashuvi: burun, o'rta quloq va hiqildoq bo'shliqlarini markazda joylashgan halqumga ochilishi ularni anatomik jihatdan birlashtirib, patologik jarayonlarning kechimini og'irlashtiradi.

3. Shilliq parda bir a'zodan boshqasiga o'tib ularni yagona qoplam bilan qoplashi va yallig'lanish jarayonini tarqalishiga yordam berishi.

4. Qayd etilgan a'zolarning har biri tashqariga ochiladigan chuqur bo'shliqlardan iboratligi va ularni tekshirish usullari bir xil tamoyillarga egaligi; a'zoni ko'zdan kechirish uchun uning chuqur joylashgan devorlari yorug'lik to'plami bilan yoritilishi lozim, bunda ko'rish va yorug'lik to'plamining o'qlari bir-biriga mos tushishi talab etiladi.

1841 yilda nemis vrachi Gofman yuqori nafas yo'llari va quloq sohasini yoritishning oddiy taklif qilib, ularni tekshirish usulini ishlab chiqdi. Usulning mohiyati shundan iboratki, ko'p katta bo'lmagan oynaning markazida kichik aylana teshik hosil qilinadi. Tekshiruvchi oynadan aks etayotgan yorug'lik to'plamini bo'shliq ichiga (tashqi eshituv yo'li, halqum, burun) yo'naltirib, uni oynadagi teshik orqali ko'zdan kechiradi. Bunda ko'zning ko'rish o'qi va yorug'lik to'plamining o'qi bir- biriga mos tushadi. Keyinchalik burun, halqum, hiqildoq va quloqni tekshirish uchun turli asboblar ishlab chiqildi. 1861 yilda A.Trelch oynani peshonada ushlab turuvchi moslamani yaratdi (o'sha paytdan boshlab ushbu asbob "peshona reflektori" deb atalib kelinmoqda). 1855 yilda Manuel Garsia (ashula o'qituvchisi) bilvosita laringoskopiya tekshiruv usulini taklif etdi, bunda dastali kichik oyna og'iz bo'shlig'iga tanglay tilchasigacha kiritilib, unga yorug'lik to'plami yo'naltiriladi.

Oynadan aks etayotgan yorug'lik to'plami hiqildoqni yoritishi tufayli oynada a'zoning aksi ko'rinadi. Manuel Garsia ikki ko'zgu yordamida o'z hiqildog`ini ko'zdan kechirib, birinchi bo'lib autolaringoskopiya tekshiruvini bajardi. Keyinchalik tashqi eshituv yo'li va nog'ora pardani ko'zdan kechirish uchun quloq voronkasi ishlab chiqildi; keyin quloq voronkasi bo'yi bo'ylab kesilib va dasta o'rnatilib burun kengaytirgich asbobi yaratildi.

Xulosa

VOLUME 6, ISSUE 2, 2023

To’plangan bilim va amaliy tajribalar otorinolaringologiya fanini muntazam ravishda yangilab bormoqda, soha ichida alohida yo’nalishlar - bolalar otorinolaringologiyasi, otonevrologiya, foniatriya, onkologik otorinolaringologiya, rinologiya, audiologiya, vestibulologiya tashkil qilinib, muntazam rivojlanib bormoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1.Брюс У., Джафек ЭНН .Секреты оториноларингологии. 2001.

2. Волков А.Г. Лобные пазухи. М. 2001.

3. Григорьев Г.М. Современная лекарственная терапия и пропись рецептов

при основных заболеваниях уха, горла и носа. Екатеринбург. 1998.

4. Гусель В.А., Маркова И.В. Справочник педиатра по клинической фармакологии . Ленинград: Медицина : 1989 г.

5. Дерюгина О.В, Ф.И.Чумаков. Орбитальные и внутричерепные осложнения воспалительных заболеваний носа и околоносовых пазух у взрослых и детей. М. М. 2001.6. Егоров В.М., Козин В.К., Гришин Б.С. Промедикация детей (цели, задачи, способы). Методические указания. Свердловск : изд. Свердловского мед. института, 1987 , стр.13.

7. Исхаки Ю.Б., Кальштейн Л.И., Детская оториноларингология. Дружба: маориф, 1977 г. 8. Максимович Я.Б., Гайденко А.И. Прописывание, несовместимость и побочное действие лекарственных средств. Киев : Здоровье, 1988 г. стр. 144 9. Маркова И.В., Калиничева В.И., Педиатрическая фармакология. Медицина: 1987

WORDLY
KNOWLEDGE